

**YUQORI SINF O'QUVCHILARI UCHUN INGLIZ TILIDA YOZISH
KO'NIKMASINI OSHIRISH USULLARI**

Samarqand davlat chet tillar instituti

Ingliz tili II fakulteti

Xorijiy tili va adabiyoti yo'nalishi

2-bosqich talabasi

Uzoqova Umida

Te:+998 904532127

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada hozirgi kunda o'quvchilar uchun katta muammo hisoblangan IELTS da writingdagi qiyinchiliklar va yozma nutq ko'nikmasini takomillashtirish usullari haqida ma'lumot beriladi.

KALIT SO'ZLAR. IELTS da yozish ko'nikmasi, diktantlar, 1-topshiriq, 2-topshiriq, muvofiqlik va uyg'unlik.

**WAYS TO IMPROVE ENGLISH WRITING SKILLS FOR HIGH
SCOOL STUDENTS.**

ABSTRACT. This article will provide information on writing mistakes in IELTS which is a problem for students today and ways to improve writing skills.

KEY WORDS IELTS da writing, Task 1, Task 2, Coherence, and Cohesion.

Yurtimizda chet tillarini ayniqsa, ingliz tilini o'rganayotganlar juda ko'pchilikni tashkil qiladi. Bu esa o'z o'mnida sohada beriladigan e'tibor nishonasidir.

Hozirgi kunda yuqori sinf o'quvchilari ingliz tilini o'rganishda va ingliz tilini xalqaro darajada bo'lishini ta'minlaydigan sertifikatni (IELTS) ni olishda anchagina qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Eng muhimlaridan biri bu yozish ko'nikmasi ya'ni writing qismidir. Nima uchun yuqori sinf o'quvchilari aynan writing yozishga g'oya toppish, lug'atlarni o'z o'mnida qo'llay olmaslikka

qiynalishadi? Nega writingni bali boshqa ko'nikmalarining balidan farqli o'laroq past bo'ladi? Buning eng katta sabablaridan biri o'quvchi writingdagi topshiriqlarga aynan qanday javob yozish kerakligi va tekshiruvchi ulardan aynan nimani kutishini aniq bilmasliklari bilan bog'lasak bo'ladi.

Yuqori sinf o'quvchilarini yozish mahoratini oshirishda diktant yozish alohida ahamiyatga ega. Asosan, quyidagi diktant turlaridan yozma nutqni o'stirishda ko'proq foydalaniladi; eshituv,ko'ruv,ko'ruv-eshituv va ogohlantiruvchi diktantlar.

Eshtuv diktantida o'rganilgan materiallardan aytib turish orqali yozdiriladi. Ko'ruv diktantida avval ma'lumot doskada yozilib o'chiriladi so'ngra yoddan yoziladi.Ko'ruv –eshituv diktanti esa har ikkala diktant turini o'zida mujassamlashtirgan.

Ogohlantiruvchi diktant turida o'qituvchi yozilishi qiyin bo'lgan so'zlarni doskada yozib tushintiriladi, o'chiradi, so'ngra ularni aytib turib yozdiradi. Mana shu uslub asosida ham maktab o'quvchilari yozma nutq mahoratini shakllantirish mumkin.

O'z oldiga IELTS dan yuqori natijaga erishishmi maqsad qilgan o'quvchilar uchun testing writing qismi haqida qisqacha ma'lumot .

IELTS testining yozma qismida test topshiruvchilarga ikkita topshirriq beriladi. 60 daqiqa ushbu qism uchun sarflash kerak bo'lgan vaqt. Birinchi topshiriq Task1 deb ataladi. Ushbu qism uchun 20 daqiqa sarflash kerak.Task1 javobini yozishga o'quvchilarga yordam sifatida ayrim ma'lumotlar beriladi. Ikkinchisi qism Task2 deb nomlanadi. Bu qism Task1 dan ancha murakkabroq bo'lib o'quvchilarga hech qanday ma'lumot berilmaydi va kamida 250 ta so'z yozilishi kerak. Test boshlaganda yozishni Task2 dan boshlash zarur , chunki u Task1 dan muhimroq va unga ko'proq mehnat sarflashga to'g'ri keladi. Va albatta biz axborot texnalogiyalari davrida yashayapmiz. Bu bizni hayot tarzimizga albatta o'z ta'sirini o'tkazadi. Hozirgi kunda har bir kishining qo'lida gazeta ,jurnal kitob emas,balki telefon,planshet,kompyuterlarni ko'rishimiz odatiy holdir.Hattoki kichik yoshdagি bolalarda ham telefon bor.Telafondan samarali

foydalanayotganlar kitobni audio shaklini eshitishi mumkin, lekin ko'z bilan ko'rib o'qimaydi. Kam kitob mutolaa qilish savodsizlikka sabab bo'ladi. Har kim kitob o'qish paytida ko'z orqali yozilishini o'rganadi. Ko'chalarda ,bozor rastalarida, axborot vositalarida berilayotgan reklama peshtaxtalaridagi noto'g'ri yozilgan yozuvlar inson miyasiga to'g'ridan-to'g'ri muhrlanadi. Maktab o'quvchilari va talabalarni o'zlarining yozma ishlarida imlo bilan bog'liq xatoliklarni sababi aynan shunda desak adashmaymiz.

Writingda muammo bo'lib past balga sabab bo'ladigan omillar:

1. Vaqt yetishmasligi
2. Yozma ishni rejalashtirmaslik
3. So'ralayotgan yozma ishni yetarlicha tushunmaslik

Har bir topshiriqqa javob yozishdan oldin puxta tayyorgarlik ko'rish lozim. Har ikkala topshiriqda ham kirish va asosiy qism yoziladi. Inshoda ya'ni ikkinchi topshiriqda xulosa ham mavjud. Ularni yozishdan oldin asosiy g'oyalarni shakllantirish lozim. Testga kirishdan oldin juda ko'p mashq qilish kerak aks holda vaqt yetishmasligi , so'zlarni yetarlicha va to'g'ri yozilishi bo'yicha muammolar tug'iladi.

Yozma testdan yuqori bal olish uchun quyidagi bir nechta shartlarni to'g'ri, izchil bajarilganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Task achievement – topshiriqning qay darajada to'g'ri va to'liq bajarilganligini belgilaydi.

Coherence and Cohesion da topshiriqlar qay darajada to'g'ri va tushunarli yoritilganligi belgilandi. Bundan tashqari yozma ishlarda so'z boyligi ham muhim ahamiyatga ega.

Yozma ishlarga qo'yiladigan umumiy hisob mana shu shartlar asosida belgilanadi.

Yozma ish topshiriqlarida yuqori ball olish uchun ayrim mezonlarga amal qilish kerak.

Avvalo yozma ishda asosiy fikr aniq, tiniq berilgan, qo'llab-quvvatlovchi

izohlar (supporting idea)lar va qo'shimcha ma'lumotlar berilgan lekin mavzudan uzoqlashib ketmagan bo'lishi lozim.

1- Mashq kirish qismida sininimlar va bosha so'zlar yordamida topshiriqda berilgan ma'lumotlarni ma'no o'zgartirmasdan qaytadan yozing, asosiy paragraflarni ta'kidlab o'tgan asosiy fikrlarni xulosada umumlashtiring.

2- Mashqda inshoni kirish qismidan boshlash, so'ng ikkita paragraf va yakuniy qism (xulosa) bilan tugatish kerak. Kirish qismida berilgan savolning ma'nosi o'zgartilmasdan qaytadan yoziladi va har bir paragrafni topic sentence bilan boshlab va topic sentence ni (mavzu bayoni)ni tasdiqlash va quvvatlash maqsadida misollar, sharh va izohlardan foydalanish yaxshi natija beradi. Xulosada esa shaxsiy fikr umumlashtiriladi.

Ishingizni topshirishdan oldin tekshirib oling.

"Grammatik , imlo va punktuatsiyada xatolar bormi? ","Vazifada berilgan hamma savollarga javob yozilganmi?", "Har bir paragraflarda (mavzu bayoni) topic sentencelar bormi va ularga yetarlicha fikr berildimi?", "Xulosada fikrlar umumlashtirildimi ?". Agar mana shu savollarga sizning yozma ishingizda to'liq javob bo'ladigan bo'lsagina siz yozma nazoratlarda yuqori bal to'plashingiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, nafaqat ingliz tilida balki barcha tillarni puxta o'zlashtirishda yozma nutq , yozma savodxonlik muhim ahamiyat kasb etadi. Yozish ko'nikmasini oshirishning eng samarali usuli ko'proq o'qish , o'rganish va tinimsiz mashq qilishdir. Zero, ma'rifatparvar adib Zokirjon Furqat "Mening məktəb aro buldir murodim , Xatimdek chiqsa ilm-u savodim" deya ta'riflaganidek , har birimiz yozma nutq savodxonligini oshirishga harakat qilishimiz zarur.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1 https://grantlar.uz/blog/academic-ielts-writing_7/

2 <https://global-edu.uz/articles/writingni-rivojlantirish-uchun-tavsiyalar/>

3 Nurmuhammadov .Z. " Yozma savodxonlikni o'stirishni 7 usuli "

4 Jamol Jalolov . " Chet tillarni o'qitish metodikasi " . Toshkent .2012